

Дуккакли дон экинлари уруғларини уруғдориллагичлар билан дориллаб экишнинг туганак узунбурунларга қарши биологик самарадорлиги.

№	Вариантлар	Препарат сарфи кг, л/т	1 м² даги туганак узун-бурунларнинг ўртача сони, униб чиққандан кейинги кунлар бўйича			Биологик самарадорлик, % кунлар бўйича		
			12	25	40	12	25	40
	нўхат							
1.	Далучо 70% н.кук	5,0	0	0	0,4	100	100	87,5
2.	Круизер Экстра 362 сус.к.,	3,0	0	0	0,5	100	100	84,4
3.	Назорат (дориланмаган)	-	1,9	2,3	3,2	-	-	-
	Соя							
1.	Далучо 70% н.кук	5,0	0	0	0,5	100	100	86,2
2.	Круизер Экстра 362 сус.к.,	3,0	0	0,2	0,4	100	92,6	88,9
3.	Назорат (дориланмаган)	-	0,9	2,7	3,6	-	-	-
	мош							
1.	Далучо 70% н.кук	5,0	0	0	0,6	100	100	81,9
2.	Круизер Экстра 362 сус.к.,	3,0	0	0	0,7	100	100	78,8
3.	Назорат (дориланмаган)	-	1,1	2,1	3,3	-	-	-

Мошда ўтказилган тажрибанинг назорат вариантыда экинлар униб чиққандан сўнг ҳисобнинг 12 - кунда 1,1 дон, 25-кунда 2,1 дон, 40 - кунда эса 3,3 дон туганак узунбурунлар зарарлаётгани кузатилди, Далучо, Круизер Экстра 362 сус.к., билан ишлов берилган вариантда 25 кунгача туганак узунбурун кўнғизлар учрамади (жадвал).

Олиб борилган тадқиқотлардан хулоса қилиб айтганда, қишлоқ хўжалиги экинлари зараркунандаларига қарши

қўллаш учун тавсия этилган инсектицид уруғдориллагич препаратлардан Далучо 70% н.кук 5,0 кг/т ва Круизер Экстра 362 сус.к., билан дуккакли дон экинлари уруғларини экишдан камида 20 кун олдин дориланиб экилганда экинлар униб чиққандан кейин 25-35 кунгача туганак узунбурунлардан ҳимоя қилиниб, бу зараркунандалар келтирадиган зарарнинг олди олинади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Алимджанов Р.А. Насекомые, повреждающие, бобовые культуры. –Ташкент: Фан, 1968.- С.54-61.
2. Алимджанов Р.А.-Биология клубеньковых долгоносиков в условиях поливного люцерника //Труды Узбекского филиала АН СССР, Серия 12. Вып.2 Изд. – Тошкент: Фан, 1941.- С. 5 – 61.
3. Полевщикова В.Н., Сорокина В.Н. Вредители и болезни кормовых и зернобобовых культур. Т. «ФАН». – 1967.- С. 85-100.
4. Хўжаев Ш.Т.- Инсектицид, акарацид, биологик фаол моддалар ва фунгицид ларни синаш бўйича услубий кўрсатмалар. Тошкент. 2004й.

UO'T: 632.7.

LALMIKOR SHAROITDA ETISHTIRILADIGAN ARPA ZARARKUNADALARI

Nasirov Baxtiyor Saloxiddinovich,
Abror Norbo'tayev,
Toshkent davlat agrar universiteti assistenti.

Аннотация. Ushbu maqolada lalmikor sharoitlarda yetishtiriladigan arpaning yetishtirish agroteknikasi hamda o'suv davri davomida zararkunanlardan himoya qilishda qo'llaniladigan Banvel 48 % suvli eritma, Bazagran-3-4 l/ga pestitsidlarni qo'llash me'yorlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: arpa, zararkunanda, fitofag, populyatsiya, agroteknologiya, qandala, kimyoviy

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований по применению пестицидов Банвел 48% водный раствор, Базагран-3-4 л/га, применяемых при производстве и защите от вредителей ячменя, выращиваемого в засушливых условиях. в течение вегетационного периода.

Ключевые слова: ячмень, вредитель, фитофаг, популяция, агротехника, клоп, химический

Annotatsiya. *This article shows the results of the research on the agrotechnics of the cultivation of barley grown on dry land and the criteria for the application of Banvel 48% aqueous solution, Bazagran 3 4 pesticides, which are used to protect against pests during the growing season.*

Keywords: *barley, pest, phytophage, population, agricultural technology, bug, chemical*

Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi: Bugungi kunda dunyoda lalmi arpa yetishtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni qo'llash xisobiga sifatli va mo'l xosil olishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Arpa yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, yangi navlarni yaratish hamda ularni ishlab chiqishda joriy etish natijasida so'nggi 16 yilda ekish maydoni qisqarsada hosildorlik oshishi xisobiga yalpi don etishtirish qisqarmagan. Dunyo bo'yicha lalmi arpa etishtirish 2000-yilda 61.7 mln ga yalpi hosil 141.9 mln tonna, hosildorlik 2016 yilda 46.9 mln ga ekilib, yalpi xosil 141.2 mln.tonna hosildorlik 3.01t. ga ni tashkil etadi. Dunyoda arpa etishtiruvchi mamlakatlar arpa seleksiyasi, etishtirish va agrotexnologiyasining ilg'or usullari, xususan ekish muddatlari va meyorlari o'g'itlash tizimi meyorlari xisobiga don xosildorligi va sifatini oshirib bormoqda. Oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash boshqoli don ekinlari, jumladan arpa navlari hosili uchun serhosil, sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan kuzgi boshqoli don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning prognoz ko'rsatkichlariga belgilangan.

Respublikaning barcha lalmikor maydonlarida kuzgi arpa ekinlari navlarini to'g'ri tanlash va joylashtirish, ekishni sifatli qilib tayyorlangan maydonlarga qulay muddat va me'yorlarda ekish hamda oziqlantirish kelgusi yilda mo'l va sifatli hosil etishtirish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Lalmi sharoitda etishtiriladigan arpa zararkunandalarini monitoring qilish va asosida ular miqdorini boshqarishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: Toshkent viloyati sharoitida arpa zararkunandalarini monitoring qilish tur tarkibi bo'yicha rivojlanish populyatsiyaning shakllanishi aniqlash;

Arpa zararkunandalarini dinamik rivojlanishida ekologik omillarning ta'siri, oziqa zanjirining tarkibi, fitofag qandala turlarini sistematik tahlili, biologik hususiyatlari va fitofag qandalalarining miqdorini boshqarishda o'rnini baholash; arpa zararkunandalarini turlarini aniqlash, samarali turlarini ko'paytirish va qo'llash texnologiyasi, samaradorligini aniqlash;

Toshkent viloyati sharoitida arpa zararkunandalarini dinamik rivojlanishi, arpa zararkunandalarini qarshi kurash choralarining biologik, xo'jalik-iqtisodiy samaradorligini baholandi.

Tadqiqot ob'ekti: Toshkent viloyati sharoitida arpa zararkunandalarini monitoring qilish asosida ular miqdorini boshqarish tanlandi.

Bahorgi arpa: Lalmikor maydonlarda bahorda ekilgan arpadan yuqori va sifatli hosil etishtirishning asosiy shartlaridan biri tuproqda namlikni ko'proq to'plash, saqlash va undan samarali foydalanishni ta'minlaydigan agrotexnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Yog'ingarchilik bilan kam ta'minlangan tekis lalmikor maydonlarda boshqoli don ekinlari urug'ini ekishning maqbul muddati fevralning oxiri, mart oyining dastlabki o'n kunligi hisoblanadi. Bu mintaqada ekish oldidan shudgorni ikki yo'nalishda tishli og'ir boronalar bilan tuproq yuzasiga ishlov berish lozim. Shuni

ta'kidlash lozimki, yog'ingarchilik bilan kam ta'minlangan bu mintaqada organik va ma'danli o'g'itlar qo'llash tavsiya etilmaydi. Olib borilgan tajriba va kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, tekis maydonlarda yog'ingarchilik miqdori 280–300 mm. ni, tuproqning namlanish chuqurligi esa 1 m. ni tashkil etgan, ba'zi yillarda bahorgi arpani 25–35 kg/ga (sof ta'sir etuvchi modda hisobida) azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish mumkin. Bu mintaqada bahorgi arpa urug'ini ekish me'yori gektariga 2,5–3,0 mln donani yoki 90–110 kg/ga. ni tashkil etishi lozim. Arpaning bahorgi yoki duvarak (ikki faslli) navlari ekilishi maqsadga muvofiq. Respublikadagi jami lalmikor maydonlarning 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etadigan, yog'ingarchilik bilan yarim ta'minlangan (340–360 mm) tekis qir-adirlik mintaqasida ham boshqoli don ekinlarini erta bahorda ekish uchun tekislik mintaqadagi kabi kuz va qishning ochiq kunlarida tuproq 20–22 sm chuqurlikda ag'darib haydaladi. Ekish oldidan diskali yoki tishli og'ir boronalar (LDG-10, BZTX-1,0) yordamida har ikki yo'nalishda ishlov beriladi. Bu mintaqada 30–40 kg/ga hisobida fosforli va kaliyli o'g'itlarni ekish oldidan yoki ekish bilan birga, shuncha miqdordagi azotli o'g'itlar bilan o'simlikning tuplash bosqichida oziqlantirish hosildorlikni o'rtacha 3–5 s/ga oshishini ta'minlaydi.

Tog' oldi va tog'li mintaqalarda bahorgi arpaning "Borisfen", "Selena Star" va h.k. navlarini ekishning qulay muddati mart oyining birinchi o'n kunliklari hisoblanadi. Bu muddatlarda ekishning maqbul me'yori gektariga 4–4,5 mln. donani (90–110 kg/ga) tashkil etishi lozim. Ekiladigan arpa navlarining 1000 dona don vazni 38–40 g. dan kam bo'lmasligi, tozaligi va unuvchanligi esa I va II sinf talablariga to'liq mos kelishi lozim. Bahor oylarining seryog'in kelishi, havo namligining yuqori bo'lishi kuzda va bahorda ekilgan bug'doyning zang va boshqa kasalliklar bilan kuchli darajada zararlanishi nafaqat sug'oriladigan, balki lalmikor maydonlarda ham kuzatilmoqda. Shuni e'tiborga olib asosiy e'tiborni urug' ekishdan kamida 2–3 hafta oldin yuqori samaradorlikka ega bo'lgan hamda kafolatlangan fungitsidlar bilan yaxshilab dorilanishi zarur.

Ekish muddatalari: Lalmikor erlarning yarim ta'minlangan tekis qir-adirlik mintaqasida maqbul ekish muddati mart oyining birinchi kunligi, ekish me'yori gektariga 90–10kg/ga, tog' oldi va tog'li mintaqalarda esa mart oyining boshida ekish maqbul hisoblanadi. Bu mintaqalarda arpaning ekish me'yori 100–110kg/ga ni tashkil etadi. Bunda albatta 1000 dona don vazniga alohida e'tibor berish zarur. Tuproq namligiga qarab qator oralig'i 45–60 santimetrni tashkil qiladi. Lalmikor maydonlarda barcha dukkakli ekinlar kabi arpao'simligi ham fosforli o'g'itlarga talabchanligi yuqori hisoblanadi. Lekin, arpaning dastlabki o'sish-rivojlanish bosqichlarida azotli birikmalarga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida 30–40 kg/ga sof ta'sir etuvchi modda hisobida tarkibida azot saqlaydigan fosforli o'g'itlarni (ammofos, AFU va boshqalar) ekish oldidan yoki ekish bilan birga berish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Respublikamizning lalmikor sharoitida etishtiriladigan arpa o'simligida uchraydigan zararkunandalarni

oldini olish va ularga qarshi kurashishda maqbul ekish muddati mart oyining birinchi o'n kunligida va 90–100 kg/ga me'yorda ekilganda ijobiy natijalarga erishilgan.

Kasallik va zararkunandalarga qarshi kimyoviy kurashda arpaning o'suv davrida qo'yidagi pestitsidlarni: Banvel 48 % suvli eritma, 0,5-0,8 l/ga, Bazagran-3-4 l/ga qo'llash tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Kimsanbaev X.X., Sulaymonov Anarbaev A.R., Ortiqov U.D., Sulaymonov O.A., Jumaev R.A., Axmedova Z.Yu. Biotsenozda o'simlik zararkunandalari parazit entomofaglarini rivojlanishi. «O'zbekiston» NMIU, – Toshkent: 2016.
2. Abduvosiqova L.A., Jumaev R.A. Биекология видов трихограммы. // Актуальные проблемы современной науки. – № 2(99) 2018 g.
3. Bo'riev X.Ch., Kimsanboev X.X., Sulaymonov B.A. Biolaboratoriyada entomofaglarni ko'paytirish. uslub.qo'll. O'qituvchi, - T., 2000.
4. Sulaymonov B.A., Xaitov A.A., Xudayqulov J.B., Anorboev A.R. va boshq. O'zbekistonda donli ekinlar yetishtirishning innovatsion texnologiyalari va istiqbollari. Fermerlar uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent: 2019.
5. Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik kartalar. 2016-2020 yillar. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan chop etilgan. T.2016. Jurnal, II–qism.

УЎТ: 633.31/37:634.8.032

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН ШАРОИТИДА ДУККАКЛИ ДОН ЭКИНЛАРИ МОШ (*PHASEOLUS AUREUS* PIP) ЭНТОМОФАУНАСИНИ ЎРГАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ

Садыкова Мехрибан Романовна,

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институт докторанти.

Аннотация: бу зараркунандалар ўсимликнинг турли фазаларида ниҳоллар, барг ва поялар, генератив органларига зарар келтириб яшаши аниқланиб, булар ичида ўргимчаккана, дуккакликлар шираси, кузги тунлам, гўза ва беда тунламлари, тугунак узунбурун ва бошқалар кўп зарар келтириши кузатилди. Калит сўзлар: зараркунанда, ўсимликлар, зарари, ўргимчаккана, дукаклик шира, кузги тунлам, гўза ва беда тунлами, тугунак узун бурни.

Аннотация: установлено, что эти вредители обитают в разных фазах растения побеги, листья и стебли, генеративные органы, вызывая повреждения, в том числе паутиными клещами, бобовыми тлями, озимая совка, хлопковой и люцерновой совка, клубеньковый долгоносик и другие, наносят большой вред.

Ключевые слова: вредитель, растения, повреждения, паутиными клещами, бобовыми тлями, озимая совка, хлопковой и люцерновой совка, клубеньковый долгоносик

Abstract: it has been established that these pests live in different phases of the plant shoots, leaves and stems, generative organs, causing damage, including spider mites, bean aphids, winter scoop, cotton and alfalfa scoop, nodule weevils and others, cause great harm.

Key words: pest, plants, damage, spider mites, bean aphids, winter cutworm, cotton and alfalfa cutworm, nodule weevil

Ўзбекистонда мош (*Vigna radiata* (L.) қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришида муҳим аҳамиятга эга бўлиб, озуқавий таркиби, таъми ҳамда аҳоли томонидан севиб истеъмол қилиниши бўйича муҳим ўринни эгаллайди. Республикаимизнинг тупроқ-иқлим шароитида мош иссиққа ва қурғоқчиликка чидамли экин сифатида кузги буғдой ҳосилини йиғиб олгандан кейин тақрорий экин сифатида етиштирилади. Мош атмосферада биологик азотнинг тупроқда тўпланишига ҳисса қўшади ва тупроқ унумдорлигини оширади, пахта, дон ва бошқа экинлар учун яхши ўтмишдош ҳисобланади.

Мош ем-хашак сифатида ҳам катта аҳамиятга эга. Мош – энг яхши сидерат экин ҳисобланади, у кўкрат ўғит сифатида ишлатилганда тупроқда 70 ц га қуруқ модда тўпланади. Мош дуккакли ўсимлик сифатида тупроқ унумдорлигини яхшиловчи экин бўлиб, алмашлаб экиш маҳсулдорлигини оширади, азотли ўғитларни тежайди, гектаридан оқсил йиғишни кўпайтиришга имконият беради.

Республикаимизда мош экини катта майдонларга ва

томорқа ерларга экилиб ҳосил етиштирилмоқда.

Лекин кейинги йиллари мош ўсиш даврида ва сақлаш пайтида зараркунанда ҳашоратлар ва касалликлар билан зарарланиш ҳолати тобора ортмоқда. Бу ҳол ҳосилни нобуд бўлишига, маҳсулотларни истеъмол қилишга, уруғлари эса экишга мутлақо яроқсиз бўлиб қолишига олиб келади.

Шунинг учун ҳам дуккакли дон экинларини илмий асосланган усул ва воситалар билан зарарли организмлардан ҳимоя қилиш улардан олинадиган ҳосилни оширишнинг асосий омилларидан биридир.

Дуккакли экинлар энтомофаунасини ўрганишга оид тадқиқотлар дунёнинг етакчи илмий-тадқиқот марказлари ва таълим муассасаларида амалга оширилмоқда.

В.Н.Полевщиков ва В.И.Сорокин ўз тадқиқотлари давомида мошда 24 та тур зараркунанда мавжудлигини қайд қилишган. Бунда, мошнинг асосий зараркунандалари 5 та тур шира, 4 та тур қандала, 2 та тур узунбурун, 1 та тур ғовақловчи пашша, 5 та тур тунлам учраши қайд этилган.